

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI, YANGI METODLAR YORDAMIDA OG'ZAKI VA SINXRON TARJIMA MASALALARINI YAXSHILASH.

Imomova Subhida

O'zDJTU Sharq filologiyasi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjimashunoslikda turli xil metodlardan foydalanish va ularni qo'llash haqida so'z boradi. Matnlarda, xususan o'zaro suhbatlarda og'zaki va sinxron usullardan foydalanish orqali tilni yaxshilash to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *cSinxron, source language, talk chat, native speaker.*

Kirish: Tarjima – mashaqqat va sabr birlashmasining namunasi. Tarjima bilan shug'ullanish, albatta, o'rganuvchidan alohida sa'y-harakat talab qiladi. Bu soha bilan shug'ullanish davomida bo'lajak tarjimashunoslar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Tarjimalar orqali biz turli xalqlar bilan muloqot qilishimiz, do'stlik va diplomatik aloqalarni o'rnatishimiz mumkin. Tarjima nutqning bir turi sifatida tilshunoslik nuqtai nazaridan qarab o'giriladi, ya'ni tarjima jarayoni bu bir tilagi matnni ikkinchi bir tilga ag'darish – transformatsiya qilish demakdir. Mana shu har xil bajariladigan o'zaro ikki til o'rtasidagi ishlar, tilshunoslik nuqtai nazaridan tarjima jarayoni deb aytamiz. Va biz uning bir nechta turlarini ko'rib chiqamiz. So'zma - so'z tarjima – asliyat tilining strukturasi ko'zgusi bo'lib, tarjimani tushunishni qiyinlashtiradi va asl ma'noni buzib ko'rsatishi mumkin.

Ideomatik tarjima – tarjima tili strukturasi amal qiladi va asl manoni tarjima tilida tabiiy usulda ifodalaydi. Erkin tarjima – koproq tarjima tili strukturasi amal qiladi, asl manbaning ba'zi qismlari o'zgartirilishi yoki buzilishi mumkin

Tarjimada foydalanish mumkin bo'lgan metodlar va usullar.

Bilamizki, bugungi texnologiyalar rivojlangan zamonda bir tilni boshqa tilga tarjima qilish davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar sezilarli miqdorda kamaygan. Ammo shunday vaziyatlar borki, har doim ham zamonaviy qurilmalardan foydalanib bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda o'z ishining mutaxxasis tarjimonlari bizga yordam beradi. Malakali tarjimon bo'lish uchun nimalar qilish kerak? Bunda bir qancha usullar mavjud. Avvalo, tarjimon o'z tarjima tili bo'yicha yetarli ma'lumotlarga ega bo'lishi; Albatta, til o'rganmasdan, uning grammatik jihatlaridan xabardor bo'lmasdan turib, faqatgina metodlardan foydalanib tarjimon bo'lish imkonsiz. Lekin ko'pchilikda hayajon, ikkilanish va NATIVE SPEAKER(ma'lum bir davlatning mahalliy so'zlashuvchilari)lardek gapirishda muammolar sodir bo'lishini ko'p kuzatishimiz mumkin. Bunday holatlarda quyidagi usullardan foydalanish samarali bo'lishi mumkin.

1. Talk chat ilovasidan foydalanish:

Bu ilova orqali foydalanuvchi AI(artificial intelligence) bilan suhbat qilgan holda o'zi qilgan xatolarni ko'rish ularni to'g'irlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa, bu ilovadan suhbatlashishda foydalanish orqali ular yanayam tabiiyroq gapirishga erishishadi. Birgina

ilova orqali ular sinxron (to'g'ridan to'g'ri, bir paytda) tarjima qilish qobiliyatini shakllantirishlari mumkin.

2. Oyna yordamida mashq qilish:

Ko'pchilikka ma'lum bo'lgan bu usul o'rganuvchining hayajonini asta sekinlik bilan yo'qotishga yordam beradi. Shu bilan birga, oyna oldida mashq qilish tarjimonning o'zini qanday tutish kerakligini bilishda qo'l, harakatlarini kuzatishda samarali xizmat qiladi.

3. Source language (tildagi kichik detallardan tortib kattalarigacha bo'lgan ma'lumotlar) ni yaxshilash.

Shu narsa aniqki, agar tarjimonda source language yetarli bo'lmasa turli frazalarni tarjima qilishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bu narsaning oldini olish uchun til o'rganuvchidan shu tildagi filmlarni, axborot xabarlarini ko'rishni va shu tildagi kitoblarni imkon qadar ko'proq o'qishni talab qiladi.

Rivojlanib borayotgan dunyoyimizda yangi texnologiyalarning o'rnini juda katta demakdir. Aynan shu sababli ham tarjimashunoslik turli xil texnologiyalar orqali tarjima qilinmoqda. Albatta buning uchun har bir izlanuvchi ilmiy tadqiqot mobaynida o'z ustida ishlashi, yuqoridan keltirilgan usullar bilan cheklanib qolmasdan yana-da yangi qarashlar bilan yondashsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.SH.Omonova, Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma)
2. M.M.Jumayeva, Sinxron tarjima va uning bugungi kunda tutgan o'rnini
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima_nazariyasi:_tadqiqot_obyekti_va_tahlil_usullari